

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

No 1284  
"21" 01 2023-y.



PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT

fanidan

SILLABUS

Bilim sohasi: 100000 - Qishloq va suv xo'jaligi

Ta'lif sohasi: 110000 - Qishloq xo'jaligi

Mutaxassislik: 70112401 - Professional ta'lif nazariyasi va metodikasi  
(Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish)

Umumiy o'suv soati - 300 soat (10 kredit)

*Shu jumladan:*

Ma'ruza - 90 soat (3 kredit)

Amaliy mashg'ulotlar - 60 soat (2 kredit)

Mustaqil ta'lif soati - 150 soat (5 kredit)

Qarshi – 2023-yil

# “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” fani

## SILLABUSI

<b>Fanning nomi:</b> <i>Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat</i>	<b>Fan (modul) turi</b> <i>Majburiy fan</i>	<b>Fan (modul) kodi</b> <i>PTPM-1110</i>	<b>Ta’lim tili:</b> <i>o’zbek</i>
<b>O‘quv yili:</b> <i>2022/2023</i>	<b>Kurs va semestr</b> <i>I kurs, I, II semestr</i>	<b>ECTS krediti:</b> <i>10</i>	<b>Haftalik dars soati:</b> <i>6, 4</i>
<b>Umumiy o‘quv soatlari:</b> <i>300</i>	<b>Ma’ruza:</b> <i>90</i>	<b>Amaliy mashg‘ulot:</b> <i>60</i>	<b>Mustaqil ish:</b> <i>150</i>

### I. Fanning mazmuni

Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat fanining asosiy maqsadi – magistrlarda kelgusida “Ta’lim to‘g‘risidagi» qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan vazifalar hamda Davlat talim standartiga ko‘ra qo‘ylgan talablari darajasida pedagogik faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan pedagogik texnologiyaga oid bilim, pedagogik mahoratni shakllantirish va rivojlantirishga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir. Fanning vazifasi – o‘qituvchining ta’lim va tarbiya jarayonida o‘zini ma’naviy-axloqiy, amaliy-metodik va texnik jihatdan kasbiy malakaga ega bo‘lishi zarurligini asoslash orqali ularda pedagogik texnika, pedagogik muloqot madaniyati, o‘z-o‘zini hissiy boshqarish, o‘qituvchi nutqini ifodalash, pedagogik hamkorlikka erishish asoslari to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishdir.

Fanni o‘qitishdan maqsad - magistlarni pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat amaliyoti bo‘yicha bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlashdir. Chunki, hozirgi zamon o‘qituvchisi hayotimizda yuz berayotgan tub o‘zgarishlarning asosiy ishtirokchilaridan biri bo‘lib, u har tomonlama yetuk, chuqur bilimga ega bo‘lgan mutaxassis, Vatani va xalqiga sodiq, pedagogik mahorat va layoqatga ega bo‘lgan, jamiyatdagi hamda kasb vazifalarini yaxshi bilgan shaxs bo‘lishi zarur.

Fanning vazifasi - pedagogik texnologiyalarning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni va roli, pedagogik texnologiya nazariyasining asoslari va tashqiliy elementlari, ta’lim va tarbiya texnologiyalarining mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, pedagogik jarayonni tashkil etishga texnologik yondashuv mazmuni, o‘qituvchi kasbiy mahoratining ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish, o‘qituvchining ta’lim va tarbiya jarayonida o‘zini ma’naviy-axloqiy, amaliy-metodik va texnik jihatdan kasbiy malakaga ega bo‘lishi zarurligini asoslash, bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik texnika, pedagogik muloqot madaniyati, o‘z-o‘zini hissiy boshqarish, o‘qituvchi nutqini ifodalash, pedagogik hamkorlikka erishish asoslari to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalar bilan

qurollantirish, talabalarda pedagogik odob va nazokat sifatlarini rivojlantirish, bo‘lajak talabalarda pedagogik jarayonda yuzaga kelgan salbiy mazmundagi nizolarni bartaraf etish, ijobiy mazmundagi nizolarni to‘g‘ri baholash va rivojlantirish, o‘z ustida ishlash, pedagogik tajribani boyitish ko‘nikma hamda malakalarini hosil qilish.

## **II. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)**

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fani quyidagi asosiy bo‘limlardan iborat.

-o‘rganish ob’yektlarini tadqiq etish modellarini, tadqiqot natijalarini ishlab chiqish usullarini, ularni asoslash va inkor etish kabilarni bilishi;

-ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarni o‘tkazish, muammolar holatini tekshirish, axborot berish va tahlil o‘tkazish, ilmiy yechimlar bo‘yicha xulosa va takliflarni shakllantirish, adabiyotlarni o‘qish, o‘rgani va iqtisodiy –statistik materiallarni tanlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

-sohalarda ilmiy tadqiqot jarayonlarini tashkil etish va olib borish; iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish; muammolarni hal etish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash va ulardan foydalanish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

## **III. Ta’lim texnologiyalari va uslublari**

Fanni o‘qitishda an’anaviy usullar bilan bir vaqtda yangi texnologiyalardan foydalinish samarali bo‘ladi. Bu ishda talabaning mustaqil ishini to‘g‘ri tashkillashtirishga intilish lozim; o‘qitishning elektron vositalari, internet orqali olinadigan ma’lumotlar, elektron darsliklar; interaktiv usuldan foydalinish; ekspress so‘rovlari; texnik vositalarni qo‘llash va boshqa usullardan foydalinish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, masofadan o‘qitish (modul platformasi), darslik, o‘quv qo‘llanmalari va ma’ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma’ruzalar o‘qish, video-audio mashg‘ulotlar va elektron resurslar (Internet tarmog‘i orqali) dan foydalilanadi.

O‘qitish uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, animatsiyalar, amaliy mashg‘ulot darslarida mos ravishdagi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan: munozara, jamoaviy muhokama yoki muammolar ruyxatini tuzish, vaziyatni o‘rganish, tahlil qilish, babs yoki munozaralar olib borish, tanqidiy fikrlash, rolli o‘yinlar, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, klaster (tutam, bog‘lam), baliq skeleti, FSMU, bumerang, “T-sxema”, blits-so‘rov, “Nima uchun?” texnologiyalari, ma’ruza mashg‘uloti- BBXB (Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim), konseptual va insert jadvallaridan keng foydalilanadi.

Fan bo‘yicha ma’ruza matnlarini tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan Hamdo’stlik mamlakatlarida yangi chop etilib, Internet tizimi orqali tarqatilgan elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va ma’ruza matnlaridan foydalilanadi.

Amaliy mashg‘ulotlarda mashinalarning ishchi qismlari, ularning tuzilishi va ishlash prinsipini hamda ularning animatsiya ko‘rinishida va fan bo‘yicha savol javoblardan, laboratoriya mashg‘ulotlarida mashina va jihozlardan foydalilanadi.

**Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni

loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondashuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondashuv.** Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda bиргаликда ishslashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qaramaqshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

**O'qitishning usullari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O'qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rghanishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O'qitish vositalari:** o'qitishning an'anaviy shakllari (garslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy, yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejorashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining bирgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

### III. MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI

<b>№</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Qisqacha mazmuni</b>	<b>Ma’ruza</b>	<b>Amaliy mashg`ulot</b>	<b>Nazariy mashg`ulot</b>	<b>Mustaqil ishi</b>
<b>1</b>	“Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” fanining predmeti, maqsad va vazifalari	Pedagogik texnologiyalarni vujudga kelish tarixi va zarurati. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining maqsadi va vazifalari. Pedagogik mahorat va uning komponentlari. Pedagogik texnologiyalarga ta’rif va uning tahlili.	2	<b>2</b>		<b>6</b>
<b>2</b>	Pedagogik texnologiyaning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va uning ta’riflari	Pedagogik texnologiyaning paydo bo‘lishi, pedagogika fanida ta’lim usullarini rivojlanish turlari. Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning qo‘sishimcha elementlari. Axborotli texnologiyalari. Pedagogik texnologiyaning ta’riflari.	4	<b>2</b>		<b>6</b>
<b>3</b>	Pedagogik texnologiyaning tavsifiy jihatlari	Pedagogik texnologiyaning manbalari, metodologik asoslari va uning turlari. Pedagogik texnologiyaning asoslari. Pedagogik texnologiya tamoyillari. Ta’lim-tarbiyaga texnologik yondashuv.	4	<b>4</b>		<b>6</b>
<b>4</b>	Oliy ta’limda o‘qitishni tashkil etishning shakl va metodlariga qo‘yiladigan talablar	Asosiy qoidalar. Ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar. Oliy maktabda o‘qitish shakllari. Oliy maktabda o‘qitish metodlari. O‘qitish metodlari va ularning funksiyalari. O‘quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va stimullash metodlari.	4	<b>2</b>		<b>6</b>
<b>5</b>	Sharq mutafakkirlarining bilish faoliyati to‘g‘risida ilmiy-pedagogik qarashlari	O‘rta asr qomusiy olimlarning qarashlari va ta’limoti, oliy maktab talabalarining bilish faoliyati. Bilish faoliyatining tiplari, perseptiv, reproduktiv, produktiv bilish faoliyati.	4	<b>2</b>		<b>6</b>
<b>6</b>	Talaba shaxsi rivojlanishi tavsifi	Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatları, ırsiy omillar ijtimoiy muhit. O’smirlik davrida shaxsnинг shakllanishi. Talabaning aqliy faoliyat xususiyatlari. Aql rivojlanishining xarakterli xislatlari, ijodiy tafakkur.	4	<b>2</b>		<b>6</b>
<b>7</b>	Pedagogik texnologiyaning shakllanishi va uning zamonaviy tuzilmasi	Pedagogik texnologiyaning shakllanishi, ta’lim texnologiyasi va uning tuzilishi, asosiy maqsadi. Ta’limda axborot texnologiyalari. Pedagogik texnologiyada qo‘llaniladigan usul va vositalar.	<b>4</b>	<b>2</b>		<b>6</b>
<b>8</b>	O‘qituvchining innovatsion faoliyati	Innovatsion faoliyatining nazariy omillari. Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalari va qonuniyatları. O‘qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi. O‘qituvchining innovatsion	<b>4</b>	<b>2</b>		<b>6</b>

		faoliyatini shakllantirish shartlari.			
<b>9</b>	Ta'limda axborot texnologiyalari	Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Pedagogik dasturiy vositalar tushunchasi. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratishga qo'yiladigan talablar.	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>8</b>
<b>10</b>	Pedagogik texnologiyani joriy etish muammolari	Pedagogik texnologiyani joriy etish muammolari. Muammoli ta'lim texnologiyasining maqsad va vazifasi. Innovatsion texnologiyalar asosida fanlarni o'qitish. O'qitish jarayonida qo'llaniladigan ba'zi bir treninglar (texnologiyalar).	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>8</b>
<b>11</b>	Didaktik o'yinli texnologiyalar	Didaktik o'yinli mashg'ulotlar. Didaktik o'yinli dars va uning turlari. Didaktik o'yinli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari. O'qitishning faol pedagogik texnologiyalar.	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>8</b>
<b>12</b>	Muammoli o'qitish texnologiyalari	Muammoli o'qitish texnologiyasi. Muammoli o'qitishni tashkil etish shartlari. Muammoli ta'limning didaktik mohiyati. Muammoli vaziyat va uni yaratish metodlari. Muammoli ma'ruza. Keys-stadi texnologiyasi.	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>8</b>
<b>13</b>	O'qitishning interfaol metodlari	O'qitishning interfaol metodlari. Interfaol ta'limning umumiy tavsifi. Interfaol ta'lim va uning didaktik imkoniyatlari. Interfaol ta'limning asosiy belgilari va tamoyillari. Interfaol metodlar va ularning qo'llanilishi.	<b>6</b>	<b>10</b>	<b>8</b>
<b>14</b>	Pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari	Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari. Tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi faol metodlar. Mualliflik texnologiyasi. Shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiyalar.	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>8</b>
<b>15</b>	O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi	O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi. O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan pedagogik texnologiyalar. O'qitishni tabaqlashtirish.	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>6</b>
<b>16</b>	Pedagogik texnologiya: sifat va samaradorlik	Ta'lim jarayonida talabalarning o'zlashtirish darajalari. Talabalar tanqidiy fikrini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni.	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>6</b>
<b>17</b>	O'qituvchi-kasb egasi sifatida	O'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari, o'qituvchining nutq madaniyati, O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqat turlari va darajalari.	<b>4</b>		<b>8</b>
<b>18</b>	Masofaviy va modulli o'qitish	Masofaviy va modulli o'qitish va ularning rivojlanish bosqichlari, masofaviy ta'lim tizimi va o'qitishning texnik vositalari	<b>4</b>		<b>8</b>
<b>19</b>	Pedagogik texnologiyani qo'llash bilan bog'liq tashkiliy-uslubiy ishlar	Ayrim pedagogik va psixologik tajribalar, ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar, pedagogik texnologiyaning tajriba-sinovlari, tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish.	<b>4</b>		<b>8</b>
<b>20</b>	Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat uyg'unlashuvining istiqbollari	Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati, Ilmiy-texnik taraqqiyot va ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish vazifalari. O'quv loyihasi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish metodikasi.	<b>6</b>		<b>6</b>
<b>21</b>	Pedagogik texnologiyani	Pedagogik fikr va amaliyotida o'qituvchi mahorati	<b>4</b>		<b>6</b>

	modellashtirish	masalalari. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari, pedagogik texnologiyaga berilgan ta’riflar. Pedagogik texnologiyalarning tasnifi, o‘quv materialini didaktik takomillashtirishda ta’lim texnologiyalari				
22	Pedagogik mahorat asoslari	Pedagogik mahorat haqida tushuncha, Oliy maktab o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyati. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar, pedagogik qobiliyat. O‘qituvchi faoliyati turlari.	4	4		6

Ma’ruza mashg’ulotlari multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyalarda yoki masofaviy ta’lim platformasida onlayn tarzda akademik guruhlarga o’tiladi.

#### **IV. AMALIY MASHG’ULOTLAR**

<b>Nº</b>	<b>Amaliy mashg’ulotlar mavzulari</b>	<b>Dars soatlari hajmi</b>
1,2-semestr		
1.	“Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” fanining predmeti, maqsad va vazifalari.	2
2.	Pedagogik texnologiyaning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va uning ta’riflari.	2
3.	Oliy ta’limda o‘qitishni tashkil etishning shakl va metodlariga qo‘yiladigan talablar.	2
4.	Sharq mutafakkirlarining bilish faoliyati to‘g‘risida ilmiy-pedagogik qarashlari.	2
5.	Talaba shaxsi rivojlanishi tavsifi.	2
6.	Pedagogik texnologiyaning shakllanishi va uning zamonaviy tuzilmasi.	2
7.	O‘qituvchining innovatsion faoliyati.	2
8.	Ta’limda axborot texnologiyalari.	4
9.	Pedagogik texnologiyani joriy etish muammolari.	4
10.	Pedagogik texnologiyaning tavsifiy jihatlari.	4
11.	Didaktik o‘yinli texnologiyalar.	4
12.	Muammoli o‘qitish texnologiyalari.	4
13.	O‘qitishning interfaol metodlari.	4
14.	O‘qitishning interfaol metodlari.	4
15.	O‘qitishning interfaol metodlari.	2
16.	Pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari.	4
17.	O‘qitishni jadallashtirish texnologiyasi.	4
18.	Pedagogik texnologiya: sifat va samaradorlik.	4
19.	Pedagogik mahorat asoslari.	4

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada yoki masofaviy ta’lim platformasida onlayn tarzda har bir akadem guruhga alohida o‘tiladi. Mashg‘ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o‘tiladi. “Keys stadi” texnologiyasi ishlataladi, keyslar mazmuni o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko‘rgazmali materiallar va axborotlar multimedia vositalari yordamida o‘tiladi.

## V. LABORATORIYA MASHG‘ULOTLAR

Laboratoriya mashg‘ulotlari mavjud emas.

## VI. MUSTAQIL TA’LIM

Nº	Mustaqil ta’lim mavzulari	Hajmi
1.	Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni va ahamiyati..	12
2.	Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati masalalari.	12
3.	O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyatni o‘rni va roli.	12
4.	Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari, pedagogik texnologiyaga berilgan ta’riflar.	12
5.	Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tasnifi, o‘quv materialini didaktik takomillashtirishda ta’lim texnologiyalari.	12
6.	O‘qituvchi faoliyatida muloqat madaniyati va psixologiyasi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqat turlari va darajalari.	12
7.	Pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish texnologiyasi.	14
8.	O‘qitishning “Keys texnologiyasi”ni qo‘llash metodikasi.	12
9.	O‘quv loyihasi ta’lim texnologiyasini ishlab chiqish metodikasi.	12
10.	Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim tizimi.	12
11.	Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni va ahamiyati..	14
12.	Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati masalalari.	14
	Jami	150

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha magistrantlar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uni taqdimoti tashkil etiladi. Masofaviy ta’limda o‘qituvchiga turli xil elektron ko‘rinishdagi (rasm, audio va video formatda, tirli xil kompyuter dasturlari orqali) topshirishi mumkin.

## **VII. TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONLARI VA KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR**

Fanga oid nazariy materiallar ma’ruza mashg‘ulotlarini ma’ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma’ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish va o‘zlashtirish mashg‘ulotlarga to‘liq ishtirok etish va modul (Hemis) platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta’lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo‘yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo‘yicha talabalalar test usulida oraliq nazorat va og‘zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o‘zlashtirgan talabalabarga tegishli ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) o‘quv rejasida ushbu fanga ko‘rsatilgan kredit beriladi.

### **Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:**

- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a’lo) baho;

- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

- talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

- talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimini baholash o‘quv mashg‘ulotlarini olib bormagan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o‘zlashtirgan talabalabarga tegishli ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) o‘quv rejasida ushbu fanga ko‘rsatilgan kredit beriladi.

## VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLARI HAMDA

### AXBOROT MANBALARI

#### Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sod Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – № 6 (766)-70-modda. – T.: Adolat, 2017. – B. 38.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr. <http://uz24.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydag'i "Qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3003-sodli qarori.
4. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. TDPU-2006
5. Avliyoqulov N.X. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: Tafakkur bo'stoni. 2012.
6. H. T. Omonov. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. 2009.
7. Voinova M.G. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. T. 2006.

#### Qo'shimcha adabiyotlar

8. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O'zbekiston, 2016.-56b
9. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent, O'zbekiston, 2017.-104 b
10. Mirziyoyev SH.M. O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasi. T., O'zbekiston, 2017. "Gazeta. uz"
11. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya" 2011, 270 b.
12. Ishmuxammedov R.J. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: 2008 y. 161 b.
13. Xudayqulov. X J. Pedagogik maxorat asoslari. T.: Navro'z. 2012.

#### Internet saytlari

1. <http://www.ziyonet.uz-Ta'lim portalı>.
2. <http://www.window.edu.ru-Butun Rossiya ta'lim portalı>.
3. <http://www.twirpx.com-Hammasi talabalar uchun portalı>.
4. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
5. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
6. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

Fanning sillabusi fakultet Uslubiy Kengashining 2023 yil “10”01 dagi  
“6”-sonli yig‘ilishi, institut Uslubiy Kengashining 2023 yil “21”01 dagi  
“6”-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

### **Fan (modul) uchun mas’ul:**

**Batirov Z.L.** - “Qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis” kafedrasи  
mudiri. dots.

